




SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI

XALQARO JARAYONLARDA MEHNAT MIGRATSİYASINING UMUMİY MASALALARİ



Begmatov Samandar

Termiz davlat universiteti Yuridik fakultet talabasi

Nomozov Xusan

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti “Jinoyat huquqi
va fuqarolik protsessi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Global dunyoda mehnat migrantlari va ularning oila, mehnat, mol-mulk munosabatlari. mehnat migrantlari huquq va manfaatlarini xalqaro miqyosda himoya qilish, milliy va xalqaro asoslari. Migratsiya – bugungi kunda keng tarqalgan tushunchalardan biri bo‘lib bir joydan ikkinchi joyga ko‘chmoq ma’nosini ifodalaydi. Migratsiya turli xil sabablarga ko‘ra yuz beradi. Insoniyat yaralibdiki odamlar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘rnashib kelmoqda. Bunga ba’zi omillar sabab bo‘lgan va bo‘lmoqda.

Kalit so‘zlar: mehnat migrantlari, konstitutsiya, konvensiya, inson, ta’lim, oila, mol-mulk, ishchi va h.k.

Migratsiya – bugungi kunda keng tarqalgan tushunchalardan biri bo‘lib bir joydan ikkinchi joyga ko‘chmoq ma’nosini ifodalaydi. Migratsiya turli xil sabablarga ko‘ra yuz beradi. Insoniyat yaralibdiki odamlar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘rnashib kelmoqda. Bunga ba’zi omillar sabab bo‘lgan va bo‘lmoqda. Xusasan, dastavval insonlar yashash qulay bo‘lgan joylarni, ya’ni oziq- ovqat topish oson va iqlim sharoiti qulay bo‘lgan manzillarni yashash uchun qulay deb bilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, odamlar iqtisodiy va ekologik qulay joylarni o‘zлari uchun manzil qilishni xohlagan. Inson ko‘p sohalarda ilg‘or taraqqiyotga erishdi va ko‘p narsalarni o‘zgartirdi va ularni shakilini o‘ziga moslashtirdi. Shulardan biri bu zamonaviy mehnat migratsiyasidir. Hozirgi zamonda mehnat migratsiyasi insonlarni kambag‘allik changalidan qutqaruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Bu faqat shaxsning yolg‘iz o‘ziga foydali bo‘lmay, balki jamiyat va davlat manfaatlariga ham mos keladi. Mehnat migratsiyasi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarda inson, jamiyat va davlatning manfaatlarini ifodalash vositasi bo‘lib qolmoqda.

Mehnat migrantlari bir mamlakatdan boshqasiga o‘tganda ularning huquq va majburiyatları ham shunga mos ravishda o‘zgaradi, kengayadi. Ularni o‘ylantiradigan muammolardan biri legitimlik va huquqiy himoyalanganlik. Chunki ular migratsiya qilganda yashayotgan mamlakatda huquqiy harakatlar amalga oshiradi va huquq va majburiyatga ega bo‘ladi. Masalan chet elga bir migrant oila ishslash uchun chiqdi deylik, bunda ularning oilaviy, mulk,biznes va mehnat bilan bog'liq mumosabatlari to‘g’ridan to‘g’ri o‘sha mamlakat qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadi.

Mehnat migrantlarining o‘z mamlakati tomonidan huquqiy qo‘llab quvatlanishi ularga samarali va mahsuldor mehnat qilishga imkon yaratadi.O‘zbekiston Respublikasida fuqarolar migratsiya masalalari Konstitutsiya, xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlari bilan kafolatlangan. Amaldagi

Konstitutsiyamizning 23-moddasida¹ O‘zbekiston o‘z hududida va uning tashqarisida fuqarolar manfaatini taminlashi va ularni himoya qilishi belgilab o‘tilgan bo‘lib bu ularga o‘z manfaatlarini himoya qilishga amaliy ko‘mak beradi. Har bir inson harakatlanish erkinligi huquqiga ega. Bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 32-moddasi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 13-moddasi mazmunini ifodalaydi. Agarda fuqarolar mamlakat ularning erkin kirib chiqishini kafolatlasa, ularda xorijda mehnat qilishga nisbatan ehtiyoj uyg‘onadi va huddi shuningdek o‘z mamlakatiga qaytib kelishda va uni ijtimoiy iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shishga yordam beradi. Shuningdek Mehnat kodeksi 2- moddasiga binoan xodimlar mehnat huquqlari va erkinliklarining, shu jumladan mehnat qilishga, erkin ish tanlashga,adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlariga hamda ishsizlikdan himoyalanishga bo‘lgan huquqining davlat kafolatlari ta‘minlanadi. Ushbu kodeks 5-moddasiga ko‘ra mehnat erkinligi har kimning mehnat qilishga bo‘lgan o‘z qobiliyatlarini tasarruf etish, ularni qonun bilan taqilanganmagan har qanday shaklda amalga oshirish, mashg‘ulot turini, kasbni va mutaxassislikni, ish joyini hamda mehnat sharoitlarini erkin tanlash huquqini anglatadi.Yuqoridagi moddalarga ko‘ra mehnat qilish erkinligi va majburiy mehnat taqilanshi belgilab o‘tilgan.

O‘zbekistonda migrantlar huqlari va manfaatlari shuningdek Tashqi mehnat migratsiya agentligi tomonidan ham muhofaza qilinadi. Agentlik mehnat migrantlariga ish topish, zarur malaka ega bo‘limganda maxsus treninglar orqali ular malakasini oshirishga ko‘maklashadi. 2024-yil 20-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tasdiqlagan nizom² bo‘yicha vatandosh guvohnoma (karta) si tashkil etilmoqda. Bu nizomga ko‘ra, vatandosh guvonomasi egalari O‘zbekistonga vizasiz kirish chiqish, mehat qilish va boshqa sohalarda ko‘plab imtiyozlar beradi.

Xalqaro miqyosda mehnat migrantlarining huquqlari 1990-yil 18-dekbrda qabul qilingan *Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a’zolari huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi*³ asosida himoya qilinadi. Mazkur Konvensyaning 1-moddasiga ko‘ra, konvensiya barcha mehnat migrantlariga va ularning oila a’zolariga jins, irq, rang, til, din yoki e’tiqod, siyosiy yoki boshqa qarashlar, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, millati, yoshi, iqtisodiy holati, mulkiy holati, nikoh holati, tug‘ilishi yoki boshqa maqomidan qat‘i nazar, har qanday kamsitisiz tatbiq etiladi.

Mazkur Konvensyaning 12-moddasida esa mehnat migrantlari va ularning oila a’zolari fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o‘z xohishiga ko‘ra din yoki e’tiqodga ega bo‘lish yoki qabul qilish erkinligini hamda yakka tartibda yoki boshqalar bilan birgalikda, jamoat yoki xususiy ravishda o‘z dinini yoki e’tiqodini ibodat, marosimlar, amallar va ta‘limotlarda namoyon etish erkinligini o‘z ichiga olishi belgilab o‘tilgan bo‘lib bu mehnat migrantlarga erkin ibodat uchun sharoit yaratadi. Ushbu Konvensiya 15-moddasi bilan ularning mol-mulki daxilsizligi quyidagicha tariflangan: Hech bir mehnat migrant yoki uning oila a’zosi o‘zboshimchalik bilan yakka tartibda yoki boshqalar bilan hamkorlikda bo‘lgan mulkdan mahrum qilinishi mumkin emas. Agar mehnat muhojirining yoki uning oila a’zosining mol-mulki to‘liq yoki qisman ekspropriatsiya qilinsa, ish beruvchi davlatning amaldagi qonunchiligiga muvofiq, manfaatdor shaxsadolatli va munosib kompensatsiya olish huquqiga ega. Konvensyaning 16-moddasi 5- bandiga ko‘ra, hibsga olingan mehnat migrantlari va ularning oila a’zolari hibsga olish vaqtida imkon qadar hibsga olish sabablari to‘g‘risida o‘zlar tushunadigan tilda xabardor qilinadi va ularga o‘zlariga qo‘ylgan har qanday ayblovlar to‘g‘risida zudlik bilan o‘zlar tushunadigan tilda xabardor qilinadi deya belgilangan.

Konvensiya faqat migrantlarning emas balki ularning farzandlari huquqini ham taminlaydi. Ushbu Konvensyaning 30-moddasida mehnat migrantining har bir farzandi tegishli davlat fuqarolari bilan teng munosabatda bo‘lish asosida ta‘lim olishning asosiy huquqiga ega ekanligi belgilangan. Davlat maktabgacha ta‘lim muassasalariga yoki maktablarga kirish ota-onadan birining bo‘lishi yoki ishlashi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirdagi), 01.05.2023

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2024 yildagi “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni, PF-59-son.

³ International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of their Families. New York, 18 December 1990”. UN Treaty base. Retrieved 2 August 2021.

bilan bog'liq tartibsizliklar yoki bolaning ishlayotgan davlatda bo'lishining tartibsizligi sababli rad etilmaydi yoki cheklanmaydi.

Migratsiya masalasi bugungi kunda global ahamiyatga ega masala hisoblanadi. Negaki migrantlar bu barcha iqtisodiy kuchli davlatlar uchun asosiy ishchi kuchi hisoblanadi. Shuning uchun ham migrantlar masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Xususan 2000- yildan beri har yili 18-dekabr Xalqaro migrantlar kuni sifatida nishonlanib kelmoqda.

Bugungi kunda mehnat migratsiyasi umumiy migratsiyaning asosiy qismini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga (TMMA) 100 ming nafar ishchi va xorijiy tillarni biladigan malakali kasb egalarini tashkillashtirilgan tashqi mehnat migratsiyasi uchun tayyorlash bo'yicha topshiriq bergen edi. Shundan so'ng, TMMA 2024-yilda Germaniyada xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlikda 50,000 ta bo'sh ish o'rnlari uchun tanlov o'tkazishini e'lon qildi, jumladan, hamshira, yuk mashinasi haydovchisi, yuk mashinalari va qishloq xo'jaligi texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish, mehmonxona boshqaruvi, restoran, ish, turizm, hunarmandchilik, mexatronika, qurilish va boshqa sohalar. 2024-yil mart oyida TMMA 2024-yilda Koreya Respublikasida 37,000 ga yaqin ish o'rnlari uchun tanlov asosida 100,000 ga yaqin kishi jaib etilishini e'lon qildi. Ishga qabul qilingan mehnat migrantlari ishlab chiqarish (22,248 kishi), qishloq xo'jaligi (6,858 kishi), xizmat ko'rsatish sohasi (5,403 kishi) va qurilish (2,898 kishi) sohalarida ish bilan ta'minlanishi belgilangan.

Rossiya Federatsiyasining asosiy statistika organi Federal davlat statistika xizmati (Rosstat) 2024-yil boshida O'zbekistondan kelgan migrantlar soni qariyb ikki million kishiga yetganligini, bu Rossiya Federatsiyasidagi Markaziy Osiyodan kelgan migrantlarning eng katta guruhini tashkil etishini ma'lum qiladi (Vedomosti 2024). Ushbu hisobot davrida Rossiya Federatsiyasidagi xorijiy mehnat migrantlarining ahvoli 2024-yil 22-mart kuni Moskva viloyatining Crocus city savdo majmuasida sodir bo'lgan fojiali voqeа tufayli sezilarli darajada o'zgardi. Ushbu hodisani sodir etishda Tojikistondan kelgan bir guruh migrantlar ayblandi, bu esa nafaqat tojik migrantlari, balki Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan barcha migrantlar umumiy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur voqeadan so'ng ommaviy axborot vositalarida Rossiya Federatsiyasining yirik shaharlarida Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan migrantlarga nisbatan kamsitish holatlari haqida xabarlar paydo bo'ldi (Diplomat, 2024-yil). O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning.

1-choragida mamlakatga pul o'tkazmalari tushumi 2,5 milliard AQSH dollariga teng bo'lib, 2023-yilning shu davrdagi pul o'tkazmalari oqimiga nisbatan 8.6 foizga ko'pdir (2,3 AQSh milliard dollari). Shu bilan birga, umumiy pul o'tkazmalari ulushida Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istondan yuborilgan pul o'tkazmalarining ulushi 84 foizgacha, Rossiya Federatsiyasining o'zidan yuborilgan pul o'tkazmalari oqimining ulushi esa 68 foizgacha kamaygan. Ta'kidlash joizki, Rossiya Federatsiyasidan O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalari ulushi umumiy pul o'tkazmalari ulushida so'nggi yillarda kamayib, 2022-yilda 87 foiz, 2023-yilda esa 78 foizni tashkil etdi (MB, 2024-yil). Bundan ko'rindiki terrorizm va siyosiy beqarorlik mehnat migrantlari uchun erkin mehnat qilishiga to'sqinlik qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirdagi), 01.05.2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.
3. International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families.
4. "Migratsiya sohasidagi tahlil va dasturlar uchun mintaqaviy dalillar" loyihasi va Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligining (SDC) "Mehnat migratsiyasi dasturi - Markaziy Osiyo" loyihasi doirasidagi 2024-yil yanvar-mart hisoboti.
5. Mehnat migrantlari huquqini himoya qilish - ustuvor vazifa – Inson Huquqlari Respublika Milliy markazi.